

**Muzaffar TADJIBAYEV,**

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi, doktorant

E-mail: abdugaffor16@gmail.com

Tel: (91) 350 66 04

NamQI dotsenti, p.f.d. S. Abdullayeva taqrizi ostida

## CHARACTERISTICS OF THE TRANSLATION OF FIXED PHRASEOLOGICAL UNITS IN POP SCIENCE TEXTS

### Annotation

This article explores the term phraseological unit, explanations given to it by linguists, fixed phraseological units found in pop science texts, their function in the text, the process of translating fixed phraseological units, methods of their translation, problems arising in this process and methods for coping with these problems and their translation into language. Issues such as ways to reflect pragmatic meaning have been studied. Examples of translations of stable phraseological units are presented and analyzed.

**Key words:** Phraseological units, popular science texts, equivalent, calquing, alternatives, expressive method, compensation.

## ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА УСТОЙЧИВЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НАУЧНО-ПОПУЛЯРНОМ

### ТЕКСТЕ

### Аннотация

В данной статье рассмотрен термин фразеологизм, пояснения, данные ему лингвистами, устойчивые фразеологизмы встречающиеся в научных и популярных текстах, их функция в тексте, процесс перевода устойчивых фразеологизмов, способы их перевода, проблемы возникающие в этом процессе и методы преодоления этих проблем. Изучены такие вопросы, как способы отражения pragматического смысла. Представлены и проанализированы примеры переводов устойчивых фразеологизмов.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, научно-популярные тексты, эквивалент, калькирование, альтернативы, экспрессивный метод, компенсация.

## ILMIY-OMMABOP MATNDA MUQIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKHLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologizm termini, unga tilshunoslar tomonidan berilgan izohlar, ilmiy-ommabop matnlarda uchrovchi muqim frazeologik birliklari, ularning matndagi vazifasi, muqim frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni, ularni tarjima qilish usullari bu jarayonda uchraydigan muammolar va bu muammolarni bartaraf etish va ularni tarjima tilida pragmatik ma'nosini aks ettira olish usullari kabi masalalar o'rganilan. Muqim frazeologik birliklalar tarjimalariga misollar keltirilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Frazeologizmlar, ilmiy-ommabop matnlar, ekvivalent, kalkalash, muqobillar, tasviriy usul, kompensatsiya.

**Kirish.** Hamma zamon va makonlarda insoniyat tamaddunini asosini muayyan jamiyatdagi ilm-fanga bo'lган e'tibor, mazkur jamiyatda ilm-fanning, olimlarning tutgan o'rni belgilab bergan. Jamiyatning barcha qatlamlarini ilm-fan bilan tanitishda, ularga ilm-fanning eng so'nggi yangiliklarini yetkazishda ilmiy-ommabop matnlarning o'rni beqiyosdir. Ma'no ko'chish turlari, o'xshatish, mubolag'a, so'z o'yinlari, muqim frazeologik birliklar kabi ilmiy uslubga xos bo'lмаган, muayyan soha bilimlaridan bexabar mutoalaasevarlarni o'ziga jall qilish maqsadida badiiy, publisistik va og'zaki uslubga xos stilistik vositalar qo'llanilishi ilmiy-ommabop matn uchun xarakterlidir. Ushbu maqolamizda ilmiy-ommabop matnlarda uchraydigan muqim frazeologik birliklar tarjimasining o'ziga xosliklari haqida so'z yuritamiz. So'zimiz avvalida muqim frazeologik birlik atamasiga to'xtalib o'tsak.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Frazeologiya termini yunoncha "fraza" (rphrases – ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lsa-da, turkiyshunoslikda dastlab bu termin boshqaacha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan, XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802-1870) o'sha davr an'anasisiga ko'ra, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammaticalarda bo'lgani singari "fraza" so'zini "jumla", "gap" (predlojeniye) ma'nosida qo'llagan. Frazeologik birikma deyilganda so'zdan yirik til birliklarni tushungan. U turkiy tillardagi fe'llar haqida ma'lumot berar ekan, g'am yemoq, vujudga kelmoq, g'ussa yemoq kabi til birliklarni tarkibli fe'llar (sostavnie glagoli) deb izohlagan [1].

A. Hojiyevning Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida frazeologik birliklarga shunday ta'rif berilgan: "ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiylar qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar"[2].

L. L. Nelyubinning "Qisqacha tarjimashunoslik lug'ati"da frazeologik birliklarga berilgan ta'rif esa mana bunday: "Frazeologik birlik – bu uning tarkibiy elementlarining qismrlarga bo'linishidan ko'ra semantik mustahkamlik (nominatsiyaning yaxlitligi) ustunlik qiladigan, buning natijasida u bir so'zning ekvivalenti sifatida gapning bir qismi vazifasini bajaradigan iboradir"[3].

O'zbek olimlari M. Umarxo'jayev, A. M. Bushuy, Sh. Rahmatullayev, A. Mamatov, Sh. Tursunov, Sh. Shoabdurahmonov, G. Abdurahmonov, A. Hojiyev, A. Begmatov, O. Mo'minov, T. Ikramov, B. O'rinoiboyev, I. Mirzayev, L. T. Boboxonova, F. Salimova, Sh. Almamatova, K. Bozorboyeva, K. To'xtayeva, Q. Hakimov, Sh. Abdullayev, Sh. Usmonova va boshqalar inglez, fransuz va turk tillari materialida frazeologiya nazariyasining shakllanishini o'rganishga salmoqli hissalarini qo'shishgan.

XXI asrda o'zbek olimlarining frazeologiya sohasi bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari ham diqqatga sazovor. L. T. Boboxonova frazeologizmlarga "Ingliz tili stilistikasi" kitobida shunday ta'rif beradi: "Har bir tilda shu tilgagina xos barqaror so'z birikmalarini mayjud bo'lib, ularning ma'nosi umumiy so'z birikmalarini ma'nosidan kuchliroq bo'ladi. Bular frazeologik birikmalardir. Frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning turg'unligida, ya'ni barqarorligida, boshqaacha qilib aytganda, birikmaning semantik birligidadir. Frazeologik birliklar o'ziga tegishli bo'lgan tilning boyligi sanaladi. Ular tilda nutqda tayyor til birligi tarzida qo'llaniladi, ko'chiriladi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ustama ko'chma frazeologik ma'no deyiladi", - deydi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolamiz davomida ilmiy-ommabop matnlarda uchraydigan muqim frazeologik birliklar va ularning tarjimada berilishi haqida so'z yuritsak. Misollarga o'tishdan oldin frazeologik birliklarni tarjimada berish usullari haqida to'xtalamiz. Frazeologik birliklar tilning boshqa leksik birliklariga qaraganda murakkab tuzilgani tufayli ularni tarjimada adekvat tarzda yetkazib berish murakkab va mas'uliyatlari ishdır. Frazeologik birliklar tilning badiiy tasvirilari sifatida fikrning neytral

bayonini emas, balki turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etganlari sababidan ularni tarjimada bejirim talqin etishga intilish matnni obrazliligi va emotsiyal-ekspressiv qiymatini qayta yaratish bilan chambarchas bog'liqidir. Frazeologik birlklarni tarjima qilishni mashaqqatli amaliy jarayon ekanı ularning leksik, semantik va qurilish jihatidan xilma-xilligi, qolaversa, ularning milliy xususiyatga egaligidandir. Bu jihatlar tarjimonga ko'plab qiyinchiliklar tug'diradi.

Taniqli tarjimashunos olim Qudrat Musayev frazeologik birlklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt xil usulda – asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatic qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa xossalari farq qilgani holda, ma'no va uslubiy vazifasi o'xshash muqobil variantlar, kalka usulida va tasviriy yo'sinda tarjima qilinishini ta'kidlab o'tadi.

Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish. Bu birinchi usul turli xalqlar frazeologik birlklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi, aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yordi va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladi [5]. Masalan, life and death struggle – hayat-mamot jangi, to draw the line – chiziq tortmoq, the seven deadly thins – yetti gunohi kabira.

**Tahlil va natijalar.** Ilmiy-ommabop matnga murojaat qiladigan bo'lsak quyidagi misolga e'tibor qaratishimiz mumkin: "I don't like the way you look," she said [6].

Ruscha tarjimada: «Мне не нравится, как вы выглядите», – сказала она [7].

O'zbekcha tarjimasi: Menga ko'rinishingiz yoqmayapti, - deydi u qaynotasiga [8].

Ushbu kontekstdagi inglizcha "I don't like the way you look" jumlesi "ko'rinishingiz yaxshi emas, xavotirli" degan ma'noni ifodalagan. O'zbek tilida ham, rus tilida ham shubha uyg'otadigan, xavotirli holat, vaziyatga nisbatan "menga yoqmayapti" iborasi ishlatalidi.

Frazeologizmlarning keyingi ikkinchi tarjima usuli muqobil variantlar yordamida tarjima qilishdir. Tarjima tilida asliyatda qo'llanilan frazeologik birlikkä ekvivalent frazeologizm topilmagan holatda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birlklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birlklar o'zaro muqobililik munosabatida bo'ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo'lishi va istifoda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissii-ta'sirchan tarzda ifoda etishda o'z turmush tushunchalari, urf-odatlari, milliy-falsafiy qarashlari va o'ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi. Misollarga e'tibor qarataylik: Before we can effectively build new habits, we need to get a handle on our current ones [6.54].

Ruscha tarjimada: Прежде чем мы сможем эффективно строить новые привычки, необходимо обрести контроль над нашими настоящими привычками [7].

O'zbekcha tarjimasi: Yangi odatlarni samarali yaratishdan oldin eskilarini tizginlab olishimiz zarur [8].

Ushbu misoldagi "to get handle on" iborasi "murakkab vaziyatni yetarli darajada tushunish va nazorat qilish" degan ma'noni bildiradi [9]. Rus tarjimonini tanlagan "обрести контроль" jumlasidan ko'ra o'zbek tilidagi "tizginlab olish" iborasi muqobil tarjimaga misol bo'lgan deb aytu olamiz.

Frazeologik birlklarning navbatdagi uchinchi tarjima qilish usuli kalka usulida tarjima qilishdir. Hech bir til frazeologik birlklari hayotdagи barcha jihatlarni qamrab ololmasliklari tufayli bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologizm o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'imasligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Bu yo'l vositasida tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifani aks ettira oladi. Bunday paytda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tili lug'at tarkibining boyishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi [5].

Misollarga murojaat qilaylik: Almost like magic, I began eating a few apples each day simrly besause they were obvious rather than out of sight [6].

Ruscha tarjimada: И волшебным образом я начал есть их каждый день – просто потому, что они были на виду [7.108]. [7].

O'zbekcha tarjimada: Xuddi sehrlangandek, kuniga bir ikkita olma yeya boshladim. Bu sehr emasdi, albatta, shunchaki olmalar qayerdadir esdan chiqib yotish o'rniga doim ko'z oldimda edi [8].

Mazkur misoldagi "Almost like magic" iborasi ruschaga "И волшебным образом" deya tarjima qilingan bo'lsa, o'zbekchaga kalkalash usuli bilan "xuddi sehrlangandek" ko'rinishida tarjima qilingan va kontekstdagi pragmatik ma'no yetkazib berilgan va tarjima adekvatligi ta'minlangan.

Frazeologik birlklarni tarjima qilishning oxirgi to'rtinchi usuli tasviriy usulda tarjima qilishdir. Chunki ba'zan muayyan frazeologik birlikni ekvivalent, muqobil variant yoki kalkalash usullaridan birontasi vositasida tarjima qilishning ham iloji bo'lmaydi. "Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilariki, mazkur usul yordamida birlklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'yaqolinadi. Ushbu holatlarda asliyatdagи frazeologik birlklar tarkibida mujassamlashgan uslubiy vazifalarning qayta yaratilishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ushbu holatlarda bayon fikrning ta'sir kuchi pasayadi, aniq va siqqligi yo'qoladi. Bu esa o'z navbatida asliyat matni badiiy qiyamatining pasayishiga olib keladi." [5.205]. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik: The same goes for end caps, which are the units at the end of aisles. End caps are moneymaking machines for retailers because they are obvious locations that encounter a lot of foot traffic. For example, 45 percent of Cosa-Cola sales some specifically from end-of-the-aisle racks [6].

Ruscha tarjimada: Этот же принцип действует и для концевых стоек и прилавков, расположенных в торце: эти прилавки – «машины для заработка денег» во всех розничных сетях, поскольку очевидно, что мимо них проходит больше всего покупателей. Например, 45 % продаж «Кока-колы» осуществляется именно благодаря прилавкам и стойкам в конце рядов[7].

O'zbekcha tarjimada: Qator boshida alohida turadigan tokchalar haqida ham shunday deyish mumkin. Ular chakana savdogarlar uchun haqiqiy "qaynar xumchadir", chunki bu yerdan o'tadigan odamlar soni ko'p bo'ladi. "Coca Cola" mahsulotlarining 45 foizi shunday tokchalarda sotiladi [8].

Ushbu parchadagi "moneymaking mashines" iborasi ingliz tilida pul topish maqsadida ba'zan estetik yoki ma'naviy qadriyatlarni chetga suradigan o'ta katta foyda keltiradigan sxema yoki muassasa ma'nosini beradi. Bu frazeologik birlik rus tiliga shunchaki "машины для заработка денег" tarzida o'girilgan. Lekin o'zbek tiliga tasviriy tarjima qilish usulida "qaynar xumcha" deb tarjima qilingan. O'zbek tilida, odatda, katta foyda keltiradigan ishni yoki vaziyatni "qaynar xumcha" frazeologik birligi bilan tarjima qilinadi. Bu yerda muallif nazarda tutgan pragmatik ma'no to'laqonli ohib berilgan.

Tarjimashunos E. Ochilov o‘zining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti asarida frazeologik birliklarni tarjima qilishning kompensatsiya (berilgan qurbanlikni o‘rnini to‘ldirish, tovon to‘lash) usulini G‘aybull Salomovdan keltirib o‘tadi: “Asarning asl nusxasidagi ko‘chma ma’noli birikmalarini ularni ekvivalentlari va (muqobil) variantlari bilan almashtirish uncha qiyin emas. Ammo, ko‘p hollarda, shunday maqlol, matal va idiomatik birikmalar uchraydiki, ular faqat ayni tilning o‘zigagina xos bo‘lib, boshqa tilga ko‘chirish juda qiyinchilik tug‘diradi. Bunday holda o‘sha frazeologizm o‘rniga boshqa birikma keltirib qo‘yiladi va bu bilan originalning o‘rni to‘ldiriladi [10].” Quyidagi misolni ko‘rib chiqaylik:

Laszlo believed in this idea so strongly that he wanted to test it with his own children—and he was writing to Klara, because he “needed a wife willing to jump on board [6].

Ruscha tarjimada: Русча таржимада: Ласло верил в эту идею настолько сильно, что хотел проверить ее на собственных детях, и он написал Кларе, потому что ему «нужна была жена, готовая на проведение такого эксперимента» [7].

O‘zbekcha tarjimada: Laslo ushbu g‘oyaga shu qadar ishonar ediki, ularni o‘z farzandlarida sinab ko‘rishga ham tayyor edi. Uning Klaraga xat yozishdan maqsadi ham tajriba uchun ko‘ngilli turmush o‘rtoq qidirish edi [8].

Ushbu parchadagi “to jump on board” iborasi biror narsaning bir qismi bo‘lishga qaror qilish, biron faoliyat yoki boshqa narsa uchun guruhga qo‘shilish degan ma’noni bildiradi [11]. Ruscha tarjimasida “нужна была жена, готовая на проведение такого эксперимента” (bunday tajribani o‘tkazishga tayyor xotin kerak edi) ko‘rinishida tarjima qilingan. Bu holatda ruschada asliyatdagi ibora ibora bilan berilmagan. O‘zbekchada esa tajriba uchun “ko‘ngilli” turmush o‘rtoq qidirish edi, shaklida berib, asliyatdagi ma’noni kompensatsiyalagan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ma’no ko‘chish turlari, o‘xshatish, mubolag‘a, so‘z o‘yinlari, muqim frazeologik birliklar kabi ilmiy uslubga xos bo‘lmagan, badiiy, publisistik va og‘zaki uslubga xos stilistik vositalar qo‘llanilishi ham ilmiy-ommabop matn uchun xarakterlidir. Ayni paytda chet tillaridan turli kitoblar, ayniqsa, ilmiy-ommabop asarlar ko‘plab tarjima qilinmoqda. Ushbu tarjima asarlarni o‘qiganda g‘o‘r, shira-shakarsiz, o‘ta g‘aliz, pala-partish jummalarga har qadamda duch kelish mumkin. Bu lingvistika, stilistika, sintaksis, uslub qoidalarimi yaxshi o‘rganmay turib yeng shimarib tarjimalarga kirishib ketilayotgani, tarjimaga nisbatan oson ish deb mensimay qaralayotganining natijasidir. Yosh tarjimonlar o‘ziga xos frazeologizmlar, joy nomlari, ismlar, idoralarning atamalari – realiya deb ataladigan xos milliy hodisalarni aniq qanday o‘girish to‘g‘risida yetarli tasavvur va nazariy bilimga ega bo‘lgan holda tarjimaga qo‘l urishlari maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

#### ADABIYOTLAR

1. Казым-бек М. А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск П. Казань. 1846. С. 120.
2. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002. 38-б.
3. Л. Л. Нелюбин. Толковый переводоведческий словарь. 3-изд., перераб. Флинта: Наука. 2003. С. 240
4. Бобохонова Л. Т. Инглиз тили стилистикаси. Т. Ўқитувчи, 1995. 140 б.
5. Қ. Мусаев. Таржима назарияси асослари. Тошкент. Фан. 2005. 185-б.
6. James Clear. Atomic habits. Avery an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P. 52.
7. Клир Джеймс. Атомные привычки. СПб.: Питер. 2020. С. 78.
8. Жеймс Клир. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 74-б.
9. <https://www.phrases.com/psearch/handle>
10. Э. Очилов. Таржима назарияси ва амалиёти. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Тошкент. 2012. 49-бет.
11. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/jump-aboard>